



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING INNOVATSION YECHIMLARI

Bahodirov Muhammad Umedjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasining magistratura bitiruvchisi,
mustaqil izlanuvchilikka nomzod.

Telefon: +998(99) 351 99 07

bahodirov39@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning innovatsion yechimlari haqida so'z boradi. Ushbu texnologiyalar korrupsiyani aniqlash, oldini olish va kamaytirishda qanday foydalanilayotgani va kelajakdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Misollar, tadqiqotlar va real hayotdagi dasturlar orqali bu texnologiyalarning samaradorligi ko'rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, korrupsiya, tadqiqotlar, electron hukumat.

THE CONCEPT, PURPOSE AND TASKS OF THE LEGAL STATUS OF THE PROSECUTOR'S OFFICE

ABSTRACT

The article talks about innovative solutions of digital technologies and artificial intelligence in the fight against corruption. How these technologies are being used to detect, prevent and reduce corruption and their future potential will be analyzed. Examples, research, and real-life applications demonstrate the effectiveness of these technologies.

Keywords: Digital Technologies, corruption, research, E-Government.

Korrupsiya dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng tarqalgan muammo bo'lib, davlat idoralari va xususiy sektorning samaradorligini pasaytiradi, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi va jamoatchilik ishonchini susaytiradi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi korrupsiyaga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qarshi kurashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashda raqamlı texnologiyalar va innovatsion yechimlarning rolini tahlil qilamiz.

Korrupsiya azal-azaldan mavjud bo‘lgan, davlatning xalqaro imijiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, mamlakat iqtisodi, xalqning davlatga nisbatan legitimligini yemiradigan, umuman olganda, davlatning tanazzulga yuz tutishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladigan illat sifatida hisoblanib kelingan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda turli davrlarda turli vosita hamda mexanizmlar qo‘llanib kelingan. Odatda, korrupsiyaga qarshi kurash og‘ir ko‘rinishda kelgan. Quyida bir necha misollarni ko‘rishimiz mumkin.

1990-yillarning boshida **Italiya** Mani Pulite (Toza Qo’llar) operatsiyasini boshladi. Bu operatsiya keng miqyosli korrupsiyani o‘rganish va unga qarshi kurashish haqida bo‘lib, asosan siyosiy partiyalar va katta tadbirkorlarni o‘z ichiga oldi. Natijada, bir nechta siyosiy partiyalar tarqatildi, ko‘plab yuqori martabali siyosatchilar va biznes rahbarlari sudlandi, Italiya siyosiy manzarasi tubdan o‘zgardi va "Birinchi Respublika"ning tugashiga olib keldi.

Yoki, yana bir misolda ko‘radigan bo‘lsak, **Singapur** — korrupsiyaga qarshi kurashda jahon miqyosida muvaffaqiyatli misol sifatida tanilgan mamlakatlardan biri. Singapurning anti-korrupsiya strategiyalari va yondashuvlari davlat va jamoat sektorlarida yuqori darajadagi shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlagan. Bu o‘rinda Korrupsiyaga qarshi tekshiruv boshqarmasi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki ushu tashkilot mustaqil bo‘lgan hamda malakali xodimlarni o‘zida jamlagan holda faqat Bosh vazirga hisobot bergen.

Umuman olganda yuqoridagi ikki misollar XX asrda korrupsiyaga qarshi kurashda yorqin misollardan bo‘lib, olib borilgan beayov hamda qattiq kurash natijasida ushu davlatlarda korrupsiya sezilarli darajada pasayib, davlat iqtisodi gurkirab rivojlanishni boshlagan.

Davrlar o‘tib, internet hamda axborot texnologiyalari hayotimizning asosiy o‘rnini egallab, har jahhada undan foydalanishni boshlaganimiz bilan, korrupsiyaga qarshi kurashda ham ushu texnologiyalardan foydalanish dolzarbligi oshib bordi.

XX asrning 50-yillarida boshlangan islohotlar, XXI asrda jadal tus oldi.

Hozirgi kunda turli mamlakatlar axborot texnologiyalari hamda sun’iy intellekt vositalaridan korrupsiyaga qarshi kurashda innovatsion usul sifatida foydalanib,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

mamlakatning jahon reytingida “korrupsiyasiz davlat” sifatida namoyon bo‘lib borishida keng qo‘llay boshlashdi. Xususan,

Estoniya

Raqamli identifikasiya: Estoniya jahon miqyosida raqamli identifikasiya tizimi bilan mashhur. e-Estonia platformasi orqali fuqarolar raqamli pasportlar yordamida davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin. Bu tizim davlat xizmatlarining shaffofligini oshiradi va korrupsiyani kamaytiradi.

Blokcheyn texnologiyasi: Estoniya blokcheyn texnologiyasidan foydalanib, davlat xizmatlari va ma'lumotlar bazalarining xavfsizligini ta'minlaydi. Masalan, blokcheyn orqali tibbiyot yozuvlari, davlat kontraktlari va boshqa muhim hujjatlarning o'zgartirilmasligi ta'minlanadi.

Singapur

Smart Nation: Singapurning Smart Nation dasturi raqamli texnologiyalar va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanib, davlat xizmatlarini samarali va shaffof boshqarishga intiladi. Singapurda davlat xaridlari va moliyaviy transaktsiyalar raqamli platformalarda amalga oshiriladi, bu korruption amaliyotlarni aniqlash va oldini olishda yordam beradi.

Ma'lumotlarni Tahlil Qilish: Singapur sun'iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, shubhali harakatlarni aniqlashda yordam beradi. Bu orqali davlat idoralarining samaradorligi oshiriladi.

Germaniya

e-Government Portallari: Germaniya davlat xizmatlari uchun e-Government portallarini yaratgan. Bu portallar orqali fuqarolar va bizneslar davlat xizmatlariga tez va oson kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu tizimlarning shaffofligi korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi.

Kibertahdidlarga Qarshi Kurash: Germaniya kibertahdidlarga qarshi kurashda ilg‘or texnologiyalardan foydalanadi. Ma'lumotlarni himoya qilish va kiberhujumlarni oldini olishda zamonaviy SI vositalari qo'llaniladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Janubiy Koreya Respublikasi

K-Biz Platformasi: Koreya Respublikasi K-Biz platformasini ishlab chiqdi, bu platforma orqali kichik va o'rta bizneslar davlat xizmatlaridan onlayn foydalanishlari mumkin. Platforma orqali korrupsiyon amaliyotlarni oldini olish va xizmatlarni shaffof qilish mumkin.

Digital Transparency: Koreya Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashda raqamli shaffoflikni ta'minlaydigan vositalarni joriy qilgan. Bu orqali davlat xarajatlari va budjet jarayonlari ochiq va aniq qilib ko'rsatiladi.

Braziliya

Public Data Transparency: Braziliya Open Data platformasini yaratgan bo'lib, davlat ma'lumotlarini ochiq tarzda taqdim etadi. Bu platforma orqali fuqarolar va tashkilotlar davlat ma'lumotlarini ko'rib chiqishlari va tahlil qilishlari mumkin.

Tahlil Qilish Dasturlari: Braziliya sun'iy intellekt yordamida davlat xarajatlari va kontraktlarni tahlil qilish tizimini joriy qilgan. Bu tizim korrupsiyon amaliyotlarni aniqlashda samarali bo'lmoqda.

Hindiston

Aadhaar Loyihasi: Hindistonning Aadhaar loyihasi biometrik identifikatsiya tizimi orqali fuqarolarning raqamli identifikatsiyasini ta'minlaydi. Bu tizim subsidiyalar va davlat xizmatlarini adolatli taqsimlashda yordam beradi.

Digital Governance: Hindiston raqamli boshqaruvni yaxshilash uchun Digital India dasturini amalga oshiradi, bu dastur orqali davlat xizmatlari va ma'lumotlar raqamli formatda taqdim etiladi.

Bu misollar turli mamlakatlarning axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt yordamida korrupsiyaga qarshi kurashishda qanday innovatsion yondashuvlarni qo'llayotganini ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalar korrupsiyani aniqlash, oldini olish va kamaytirishga yordam beradi, shuningdek, davlat xizmatlarining shaffofligini oshiradi.

Shu kabi innovatsion yondashuvlar O'zbekiston Respublikasida ham jadal sur'atlarda amalga oshirib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YIDX) – bu butunjahon internet tarmog'ida foydalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasi davlat



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tashkilotlari hamda boshqa idoralar tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi internet portal.

2013-yil 1-iyul kuni Internet tarmog'ida my.gov.uz veb-manzilida YIDXp 1-talqini test rejimida ishga tushdi.

YIDXp O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 14-fevraldag'i PF-1920-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrdagi 378-son qaroriga asosan yaratilgan.

YIDXp 1-talqida kundalik turmushga taalluqli soha va yo'naliishlarni o'z ichiga oluvchi 40 ga yaqin interaktiv xizmatlar taqdim etildi. Ularning ayrimlari quyidagilar:

- Vazirlik va idoralarga murojaat yo'llash;
- Vazirlik va idoralar rahbari qabuliga yozilish;
- Vazirlik va idoralarning bo'sh ish o'rinnari bo'yicha murojaat qilish;
- Yuridik va jismoniy shaxslar uchun Internet va statsionar telefon ulash uchun ariza berish;
- Davlat soliq xizmatlari organlari tomonidan soliq qarzi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumotnomalar olish uchun ariza berish;
- Telekommunikatsiya sohasiga tegishli litsenziyalarni olish bo'yicha ariza berish.

2017-yil 18-iyul sanasida YIDXp ning yangi 2-talqini my2.gov.uz veb-manzilida ishga tushdi hamda bugungi kunga qadar faol foydalanib kelinmoqda. YIDXp 2-talqini jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan hamda Portalga kirish foydalanuvchilar yagona identifikatsiyasi qilish tizimi (OneID) orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, YIDXp 2-talqinida fuqarolar (jismoniy shaxslar) va tadbirkorlar (yuridik shaxslar) shaxsiy kabinetlari ajratilgan, elektron davlat xizmatlari uchun onlayn to'lov imkoniyati yaratilib, endilikda to'lovlarni joyida, ortiqcha yugur-yugurlarsiz amalga oshirish mumkin bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq elektron davlat xizmatlari ariza beruvchilarga davlat organlarining rasmiy veb-saytlari orqali hamda davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanishning yagona nuqtasi bo'lgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi 728-sonli qarori bilan tasdiqlangan YIDXP to‘g‘risidagi nizomga asosan YIDXP axborot, uslubiy, texnik kuzatuvi va ma’murchiligi “Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator UZINFOCOM” MChJ tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 409-sonli qaroriga asosan elektron hukumat infratuzilmasini yanada rivojlantirishni ta‘minlash, shu jumladan YIDXP, davlat xizmatlari va boshqa elektron hukumat axborot tizimlari xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘langan davlat boji va yig‘imlar miqdorini hisobga olishning yagona billing tizimini rivojlantirish “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasining funksiyalaridan biri sifatida belgilangan.

YIDXP orqali ko‘rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarini aholi uchun yanada qulay formatda taqdim etish uchun MyGov mobil ilovasi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur ilova orqali 2024-yil 1-yanvar holatiga 267 ta xizmat taqdim etilmoqda.

Umuman olganda, YIDXP tashkil etilishi yaqin yillarda mamlakatimizda olib borilgan ulkan ijtimoiy islohotlardan biri sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

Bu orqali davlat tashkilotlariga yuklamalar hamda inson omili sezilarli darajada kamaydi, byurokratiya qisqardi, jamiyat uchun ajoyib bir qulaylik yaratildi.

Shu bilan birga soliq tizimini ham avtomatlashtirilishi, ushbu sohadagi ulkan ish hajmini ma’lum bir darajada qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Sud-huquq tizimi, bank tizimi, soliq tizimi, murojaatlar bilan ishslash tizimi, tadbirdorlikni rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, xotin-qizlar bilan ishslash tizimlari, korxonalar o‘rtasida hujjat almashinuvni tizimlari, tashkilotlarning ichki tizimlari hamda ularning boshqa tizimlar bilan integratsiyalashuvi yaqin 5 yillikda O‘zbekiston Respublikasini raqamli hukumatga aylanishida muhim qadamlar sifatida e’tirof etish mumkin.

Ayniqsa, tadbirdorlikni rivojlantirishda tadbirdorlik subyektining tashkil etilishi tezligi katta ahamiyatga ega ekanligi inobatga olinib, fo.birdarcha.uz platformasi tashkil etilganligini e’tirof etish lozim.

Ushbu dastur orqali tadbirdorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lganlar ortiqcha qog‘ozbozlik hamda vaqt sarflashlarsiz, o‘tirgan joyida hech qayerga bormasdan, o‘z tadbirdorlik subyektini ro‘yxatdan o‘tkazishi mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bu bilan O‘zbekiston tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilish tezligida Doing business platformasi reytingida 2024-yil hisobida 8-o‘rinni qayd etib turibdi. Iqtisodning asosini tadbirkorlik faoliyati tashkil etishi ham bu naqadar muhim qadam bo‘lganligini ko‘rsatib turadi.

Yuqorida barcha misollar, korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda katta ahamiyatga egadir.

Maqolada taqdim etilgan misollar va tahlillar raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning korrupsiyaga qarshi kurashda qanday innovatsion yondashuvlarni taklif etayotganini aniq ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar korrupsiyani aniqlash, oldini olish va kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi, davlat xizmatlarini yanada shaffof va samarali qilishda yordam beradi.

Estoniya, Singapur, Germaniya, Janubiy Koreya, Braziliya va Hindiston kabi mamlakatlar raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni korrupsiyaga qarshi kurashda muvaffaqiyatli qo'llashlari orqali yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlashga muvaffaq bo'ldilar. Estoniya raqamli identifikatsiya va blokcheyn texnologiyalarini tatbiq etib, davlat xizmatlarining xavfsizligi va shaffofligini oshirdi. Singapur esa Smart Nation dasturi orqali davlat xizmatlarini yanada samarali boshqarishga intilmoqda va sun'iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, shubhali harakatlarni aniqlamoqda. Germaniya e-Government portallarini yaratib, fuqarolarga davlat xizmatlariga tez va oson kirish imkonini yaratdi, kibertahdidlarga qarshi kurashda ilg‘or texnologiyalardan foydalanmoqda. Janubiy Koreya K-Biz platformasi va digital transparency vositalari orqali davlat xizmatlarini onlayn taqdim etadi va korruption amaliyotlarni oldini oladi. Braziliya Open Data platformasini ishlab chiqib, davlat ma'lumotlarini ochiq tarzda taqdim etdi, sun'iy intellekt yordamida davlat xarajatlari va kontraktlarni tahlil qiladi. Hindiston Aadhaar loyihasi orqali biometrik identifikatsiya tizimini joriy etdi va Digital India dasturi orqali davlat xizmatlarini raqamli formatda taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ham raqamli texnologiyalarni kengaytirib, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) kabi muhim tashabbuslarni amalga oshirmoqda. YIDXP portalni orqali fuqarolar va tadbirkorlar davlat xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, byurokratiya kamaydi va xizmatlarning shaffofligi oshdi. Portaldagi bir qator interaktiv xizmatlar davlat tashkilotlariga yuklamalarni kamaytirib, jamiyat uchun katta qulaylik yaratmoqda. E-Government infratuzilmasining yanada rivojlanishi, tadbirkorlikni rivojlantirish



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th July - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

va boshqa davlat tizimlarining avtomatlashtirilishi O'zbekistonni raqamli hukumatga aylanishida muhim qadam bo'ldi.

Xizmatlarni avtomatlashtirish, shuningdek, elektron hukumat tizimlarining joriy etilishi korrupsiyaga qarshi kurashda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu innovatsion yondashuvlar davlat xizmatlarining shaffofligini oshirib, korrupsiyaviy holatlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Kelajakda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning rivojlanishi, ularning korrupsiyaga qarshi kurashda qo'llanilishi, davlat boshqaruving samaradorligini oshiradi va global miqyosda korrupsiyasiz davlatlarning reytingini ko'tarishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar va elektron hukumat tizimlarining muvaffaqiyatli joriy etilishi, mamlakatni korrupsiyaga qarshi kurashda innovatsion va samarali yondashuvlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 14-fevraldag'i "Obod turmush yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-1920-som Farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrdagi "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YIDXP) faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 378-son qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YIDXP) to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 728-sonli qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi "Elektron hukumat infratuzilmasini rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 409-sonli qarori;
5. <https://lex.uz>
6. <https://archive.doingbusiness.org/en/rankings>
7. <https://www.britannica.com/>